

**JADID MA’RIFATPARVARLARI FAOLIYATINING YANGI O‘ZBEK
ADABIYOTI TARAQQIYOTIGA TA’SIRI**

Abduhamid Xolmurodov

*NavDPI professori, filologiya fanlari doktori
E-mail: xolmuratovabdulhamid@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Avloniy ijodining yangi o‘zbek adabiyoti shakllanishiga ta’siri masalasida fikr yuritilgan. Bunda muallifning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” asariga tayanilgan va uning R.Barakaev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ahamiyatiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, ma’rifat, jadidchilik, tarbiya, din, payg‘ambar, tadqiqot, chahoryorlar, guruhlashtirish.

Аннотация: В статье идёт речь о влияния творчества Абдулла Авлани в формирования новой узбекской литературы. При этом обосновывался к произведению А.Авлани “Короткая история пророков и история ислама” и имел ввиду значения исследования Р.Баракаева.

Ключевые слова: педагогика, просвещение, джадидизм, воспитание, религия, пророк, исследование, группировать.

Abstract: The article discusses the impact of Abdulla Avloni's work on the formation of new Uzbek literature. In this, the author's work "Brief History of Prophets and History of Islam" is relied upon and attention is paid to the significance of the research carried out by R. Barakaev.

Key words: pedagogy, enlightenment, modernization, education, religion, prophet, research, teachers, grouping.

Jadid ma’rifatparvarlari XX asr boshlarida siyosiy kurash maydoniga kelib, Turkiston-Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy-maishiy hayotlarida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lishida juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Behbudiy, Munavvar Qori, So‘fizoda, Tavallo, S.Ayniy, Fitrat, Cho‘lpon, Hamzalarning ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish ruhi bilan sug‘orilgan ijodi va amaliy faoliyatları yangi o‘zbek adabiyotining vujudga kelishi, shakllanishi va taraqqiy topishida juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ana shu ma’rifatparvarlar safida Abdulla Avloniy ijodi va ma’rifatparvarlik faoliyati alohida o‘ringa ega.

A.Avloniying ma’rifatparvar, jadid adabiyoti vakili ekanligini professor N.Karimov ilmiy asoslab bergen. Olim uning “Tarjimai holi”dan quyidagilarni keltirib o‘tadi:

“Bu vaqtida butun oilani boqmoq uchun qish kunlarida ham ishlamoqg‘a to‘g‘ri kelganligidan quvvati muhofazam o‘rta daraja bo‘lg‘on holda madrasani tashlab chiqib ketuvg‘a to‘g‘ri keldi. Shul choqlarda o‘zim mehnat ichida yashaganlig‘imdan boylarga va mullalarg‘a qarshi she’rlar yoza boshladim. Madrasadan chiqib ketsam ham maorif ishlaridan chiqib ketmadim. Turli gazetalar o‘qishga tutindim. Shul zamonlarda Rusiyaning turli shaharlarida chiqqan matbuot-gazeta va jurnallar bilan tanishib, o‘qib, ma’lumotimni orttira bordim. “Tarjimon”

gazetasini o‘qib, zamondan xabardor bo‘ldim. Shul zamonda yerli xalqlar orasida eskilik–yangilik janjali boshlandi. Gazet o‘quvchilarni mullalar “jadidchi” nomi bilan atar edilar. Men ham shu jadidchilar qatoriga kirdim. 1904 yildan jadidchilar to‘dasida ishlay boshladim. “Jadid maktabi” ochib, o‘qituvchilik qila boshladim” [Karimov N. 3:9].

Jadid ma’rifatparvarlarining siyosiy va ijodiy faoliyati yangi o‘zbek adabiyoti shakllanishida qanchalik ahamiyatga ega bo‘lganligi olimlarimiz tomonidan yetarli darajada tadqiq etilgan. Ammo bu jadidchilikni o‘rganish nihoyasiga yetdi, degani emas. Jadidlar mafkurasi, jadid adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy va ilmiy adabiyotlarda jadid ma’rifatparvarlarining yangi adabiyot taraqqiyotiga ta’siri masalalarida hali ochilmagan qo‘riqlar mavjud. Shu jumladan, Abdulla Avloniy ijodining yangi o‘zbek adabiyoti shakllanishidagi o‘rnini belgilashdagi ilmiy izlanishlar yanada boyitib borilishi zarur.

Abdulla Avloniy ijodiy faoliyati jadidchilik, jadidlar mafkurasi, umuman jadidchilik harakatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotdagi mohiyatini anglashda alohida ahamiyatga ega. Uning ma’rifatparvarlik faoliyati amaliy pedagogika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘z davrining pedagogik muammolarini hal etishga qaratilgan ko‘plab ilmiy, badiiy asarlar yaratdi. Shulardan biri “Turkiy guliston yoxud axloq” asari bo‘lib, maktab o‘quvchilari uchun darslik sifatida yaratilgan bu asar ulug‘ mutafakkirning milliy axloq, milliy adabiyot, milliy ma’rifatni rivojlantirishdagi asosiy konsepsiyasini o‘zida aks ettiradi. “Milliy Uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” darsligida berilgan ushbu fikrlar juda o‘rinlidir: “...1905 yildan keyin yaqqol ko‘zga tashlangan fikriy uyg‘onish va milliy ko‘tarilish o‘z mohiyati bilan XVIII asr fransuz ma’rifatchiligiga ko‘p jihatdan o‘xshash edi. Avloniy ma’rifatchiligining ildizi ham shunga borib taqaladi. “Turkiy guliston...”da aql va ilmning, ma’naviy-axloqiy olamning favqulodda ehtiros bilan ulug‘lanishi adib ma’rifatchiligining bevosita mazmunidan kelib chiqadi” [Qosimov Begali va boshqalar. 4:277].

Abdulla Avloniyning yangi o‘zbek adabiyoti shakllanishidagi o‘rni, mavqeい, ilmiy-badiiy asarlarining ahamiyati Rahmatilla Barakaevning “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” nomli monografiyasida teran tadqiq etilgan. Unda A.Avloniy ijodiining tadqiq etilmagan ko‘pgina qirralari, o‘rganilmagan asarlariga murojaat qilingan. “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” asari shu paytgacha keng o‘rganilmagan. Bu asar A.Avloniy ijodida alohida ahmiyatga ega bo‘lib, u diniy adabiyot namunasi bo‘lib, uni yosh avlodga o‘rgatish ularning har tomonlama yetuk shaxslar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Boshlang‘ich diniy ta’lim berishda bu asarning qimmati beqiyos. Chunki ongi endi rivojlanib kelayotgan bolalarga Qur’oni karimda ifodalangan diniy ma’lumotni singdirish

qiyin. Shuning uchun ularni soddalashtirish, suralar va suralarni tashkil etgan oyatlar mazmunini bolalar ongiga singdirish yo‘lida tajribalar olib borilgan. O‘zbek adabiyoti tarixida bundan avval ham kishilarning imon-e’tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan, diniy bilimlarni oshiradigan, ularni targ‘ib qiladigan asarlar yaratilgan. Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida odam alayhissalomdan Muhammad alayhissalomgacha o‘tgan payg‘ambarlar tarixi zikr etilgan. Shuning uchun bu asar “Tarixi anbiyo” (“Payg‘ambarlar tarixi”) deb atalib kelangan. Alisher Navoiy ham “Tarixi anbiyo va hukamo” (“Payg‘ambarlar va hukmdorlar tarixi”) asarini yaratib, bu boqiy an’ana ekanligini isbotlagan. A.Avloniyninng asari esa bu yo‘ldagi so‘nggi tajribadir. Asarning yaratilgan davrdagi beqiyos ahamiyati va ulkan tarbiyaviy ahamiyati haqida muallifning o‘zi “usuli jadidaga muvofiq ravishda maktabi ibridoiyalarimizning uchinchi va to‘rtinchi sinf shogirdlari uchun tartib berilub, Turkiston shevasinda eng mo‘tabar asarlara iktifo qilinub, qisqacha Hazrati Odam alayhissalomdin xilofati Roshidin zamonigacha darj qilinub, maydoni intishora qo‘yilganini” ta’kidlaydi [Авлоний Абдулла. 1:1].

O‘zbek bolalar adabiyotining yirik taddiqotchisi R.Barakaev A.Avloniy asarining bolalarga diniy ilm berishdagi ahamiyati, unda ulug‘ ma’rifatparvar payg‘ambarlar va islom tarixi haqida maktab o‘quvchisi oson tushuna oladigan tarzda har bir hikoyat, qissa va rivoyatni keltirgan, ularning ma’nolarini sharhlagan. “Qisasi Rabg‘uziy”da,—deb yozadi risola muallifi, — Hazrati Odam qissasi 15-29-betlarda hikoya qilingan. “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom”da esa bu ma’lumotlar bir sahifadan ham kamroq joyni egallaydi. Biroq ana shu bir sahifaga yetar-yetmas hajmni egallagan ma’lumotlar aslida Odam Ato va Momo Havvo tarixiga aloqador deyarli barcha asosiy faktlarni qamrab olgani bilan e’tiborga sazovordir” [Barakaev Rahmatulla. 2:81]. Shu birgina izoh A.Avloniy asarining ilmiy, badiiy, didaktik ahamiyati nechog‘li ulkan ekanligini ko‘rsatadi. Bundan boshqa o‘rinlarda ham Avloniy payg‘ambarlar va islom tarixiga oid eng muhim ma’lumotlarnigina asariga kiritganligi asoslab berilgan. Masalan, Iblis Odamga dushman ekani, u Alloh taollo tomonidan hamma narsadan mahrum etilgani, uning Azozil ismi shuning uchun Iblis deb o‘zgartirilgani, iblis so‘zining ma’nosi noumid degani ekanligi tushuntirilgan.

“Muxtasar tarixi anbiyo va hukamo” asarida payg‘ambarlar hayotiga oid eng muhim ma’lumotlarga asosiy e’tibor qaratilgan. Bularni o‘rganib chiqqan risola muallifi ularni tasniflagan, guruhlashhtirgan. Bular: “payg‘ambarlarga nozil qilingan dinlar va yuborilgan kitoblar, payg‘ambarlardan qolgan sunnatlar, nisbatan mufassal ma’lumot berilgan payg‘ambarlar, Muhammad alayhissalom haqida ma’lumotlar, Islom dinining nozil bo‘lishi va tarqalishi haqida ma’lumotlar, chahoryorlarAbubakr

Siddiq, Usmon, Umar, Ali xalifaliklari haqida ma'lumotlar”¹. Bu ma'lumotlarning sodda, qiziqarli, bolalar tushunadigan tarzda berilishi Avloniyning yuksak pedagogik mahorati va ijodiy iste'dodidan darak berishi risola muallifi tomonidan to‘g‘ri qayd etilgan. Abdulla Avloniy ijodi tadqiqiga bag‘ishlangan mazkur risola munaqqid Rahmatulla Barakaevning ham ilmiy-ijodiy imkoniyatlari yuqori bo‘lgan yetuk olim ekanligidan dalolatdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авлоний Абдулла, Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи ислом, 2-табъи, Тошкент, 1913 й. Б.1.
2. Barakaev Rahmatulla, O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi, Toshkent, “FAN” nashriyoti, 2004 yil. B.81.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari, birinchi kitob, Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijtdiy uyi, 2008 yil, B. 9.
4. Qosimov Begali va boshqalar, Milliy Uyg‘onish davr o‘zbek adabiyoti, universitetlar va pedagogika oliv o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari uchun darslik, Toshkent, “Ma’naviyat”, 2004. B.277.

¹ Barakaev Rahmatulla, O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi, Toshkent, “FAN” nashriyoti, 2004 yil. B.82.